

## PTIRIM SAROKINNING SOTSIAL MOBILLIK VA SOTSIAL STRAFIKATSIYA NAZARIYASI

**Abdullahayeva Nozima**

Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy Fanlar Fakulteti Sotsiologiya yo'naliishi 1-bosqich talabasi.

Tel: +99850-103-21-05. E-mail: [abdullahayevanoz1mail105@gmail.com](mailto:abdullahayevanoz1mail105@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213116>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ptirim Sarokin hayoti uning oilasi, sotsiologiya rivojlanishida tutgan o'rni va asosiy asarlari ularning qisqacha mazmuni, Garvard universiteti ravnaq topishi hamda sotsial mobillik va sotsial strafikatsiya nazariyasi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zları.** Amaliy va nazariy sotsiologiya, integralizm, Garvard universiteti, sotsial mobillik, sotsial strafikatsiya, Ptirim Sarokin.

### PTIRIM SAROKIN'S THEORY OF SOCIAL MOBILITY AND SOCIAL STRAFICATION

**Abstract.** This article provides information about the life of Ptirim Sarokin, his family, the role of his family in the development of sociology and their main works, the development of Harvard University, and the theory of social mobility and social stratification.

**Keywords:** Practical and theoretical sociology, integralism, Harvard University, social mobility, social stratification, Ptirim Sarokin.

### ТЕОРИЯ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ СТРАФИКАЦИИ ПТИРИМА САРОКИНА

**Аннотация.** В статье представлены сведения о жизни Птирима Сорокина, его семье, роли его семьи в развитии социологии и их основных трудах, развитии Гарвардского университета, теории социальной мобильности и социальной стратификации.

**Ключевые слова:** Практическая и теоретическая социология, интегрализм, Гарвардский университет, социальная мобильность, социальная стратификация, Птирим Сарокин.

Ptirim Aleksandrovich Sarokin (1998-1968) – XX asrning yirik olimlaridan biri, Petrograd universiteti professori, taniqli rus-amerika sotsiolog. O'ng esserlar yetakchisi va ijtimoiy faylasuf bo'lib, sotsiologiya sohasiga qo'shgan hissasi bilan tanilgan. Aksinqilobiy faoliyat uchun sho'rolar hukumati tomonidan 1922-yilda Rossiyadan surgun qilanadi. Sarokin ijodiy faoliyati ikki davrga

– Rossiya (1910-1922) va AQSH davriga ajratiladi. 1960-yillarga kelib Ptirim Sarokin qirq yildan ortiq “dunyoning taniqli sotsiologlari o‘ntaligining yuqori o‘rinlaridan birida turgan amerikalik sotsiolog” sifatida tanilgan<sup>1</sup>. Amerikalik sotsiologlar uning shogirtlari bo‘lib, o‘zi nazariy sotsiologiya rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. G’arbda Pitirim Sarokin XX asr sotsiologiya klassigi sifatida tan olinib, uning nomi O.Kont, G.Spenser, M.Veber bilan bir qatorda turadi.

Ptirim Aleksandrovich Sarokin 1889-yil 21-yanvarda Vologrod guberniyasi Yarsenk uezdining Turya qishlog’ida tug’ilgan. Uning otasi Aleksandr Prokopevich hunarmand bo‘lib, cherkovni ta’mirlash ishlari bilan shug‘illangan. Ptirimning onasi Pelageya Vasilyevna dehqon bo‘lgan. Sarokin oilada o‘rtancha farzand bo‘lgan. Otasi ichkilikbozlikka berilib ketgan hattoki Ptirimning chap yuzidagi chandiqqa ham otasi sababchi bo‘lganligi keltiriladi. Sarokin uydan chiqib ketgandan so‘ng ikki sinfli maktabda o‘qiydi va o‘qishni tugatib cherkovda dars beradi.

Sarokin aytadiki: ”Men bir dunyo odamlar bilan tanishdim,:dehqon,ishchi,mansabdor, din ulamolar, taniqli shaxslar, doktor, yozuvchilar... turli partiya oqimi vakillari, monarchistlar, anarchistlar, liberarlar, va konservatorlar. Ular bilan muloqotdan so‘ng yangidan-yangi g‘oyalar bilan tanishdim. Yangi qadryatlarni anglab yetdim va ijtimoiy shart-sharoitlarning farqiga boradigan bo‘ldim.. menga ma’lumot bo‘lmagan kitoblarni, jurnal va gazetalarni intensiv ravishda o‘qishim natijasida dunyoqarashim kengaydi va chuqurlashdi.”<sup>2</sup> 1906-yilda Sarokin birinchi marta Kishinyov qamog’iga tashlanadi,lekin olim qamoqda ham o‘zining ijodiy faoliyati toxtatmaydi. Undagi turli insonlar bilan muloqot Sarokin fikrlari va g‘oyalariga ta’sir qiladi. 1918-yil 2-yanvarda navbatdagi qamoqqa olinadi. Ammo bu safar Lelinga suyiqasd qilishda ayblanib, bolsheviklar inqilobiy hukumati tomonidan xibsga olinadi. Siyosiy faoliyatga chek qo‘ygan Sarokin o‘zini ilmiy faoliyatga baxsh etadi. Keyinchalik mamlakatdagi siyosiy vaziyat o‘zgargani bois olim mamlakatni bir umrga tark etishga majbur bo‘ladi shu yildan boshlab olim hayotida yangi sahifa ochiladi va dunyo bo‘ylab mashxurlikka erishadi. Asarlari: 1. ”Inqilob sotsiologiya” (1924) 2.”Sotsial mobillik “ (1925) 3.” Zamonaviy sotsiologik nazariya “ (1927) 4. “Qishloq va shahar sotsiologiyasi tarmoqlari” (1928) 5.”Muhabbat yo‘llari va hokimiyat “ (1950) 6.”Inqiroz asrida sotsial falsafa” (1950) 6.” Muhabbat ko‘rinishi va uning kuchi “(1954) kabi bir qancha asarlarni yozadi. ”Sotsial mobillik” va ”Zamonaviy sotsiologik nazariyalar” asari dunyo bo‘yicha mashxurlikka olib keladi.

<sup>1</sup> ru.m.wikipedia.org

<sup>2</sup> Sotsiologiya tarixi/darslik/.-Toshkent:”Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 466 b 363b

P.Sarokin Garvardga kelganda u yerda sotsiologiya bo‘limi yoq edi, lekin shu yilning oxirida sotsiologiya yo‘nalishi ochiladi va Sarokin uni boshqaradi. Sarokin o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va rivojlantirish uchun Garvard universiteti unga 10 ming dollarlik grant ajratadi. Olim bir qator rus emigrant olimlari va garvardlik talabalarini o‘z ishiga jab qiladi. Natijada 1937-1941 yillar davomida Sarokinning to‘rt tomlik “Sotsial va madaniy dinamika” asari chop etiladi.

Shunday qilib olim asarlari faoliyati yuksalib boradi.

Sarokin- sotsial strafikatsiya, sotsial makon va sotsial mobillik nazariyalari asoschisi hisoblanadi. O‘zining sotsial strafikatsiya nazariyasida Sarokin har qanday jamiyat bir xil emasligini, uni tashkil etuvchi qatlamlar bir qator mezonlarga ko‘ra aniqlanishini tushintiradi: mulkiy tengsizlik, ma’lumotlarga ko‘ra tengsizlik. Bu ham huddi bir inson bir qancha sotsilal ro’lni bajarishiga o‘xshaydi. Sotsial mobillik nazariyasida u bir ijtimoiy qatlamdan boshqasiga o‘tish jarayonini tushintirib beradi. Unga bir qator g‘oyalar tegishli.:konvergensiya nazariyasi ( yaqinlashish, bir xil xususiyatlarni egallash, XX asrda barcha jamiyatlar bitta yo‘nalish bo‘yicha rivojlanmoqda va ular o‘rtasida tafovutdan ko‘ra umumiylilik ko‘proqdir, istiqbolda tafovutlar umumiyl juz’iy bo‘lib qoladi). Sarokin “sotsial makon” tushunchasini kiratadi va unga ilgarigidan ko‘ra boshqacharoq mazmun-mohiyat kas etadi.-jamiyatning yaxlitlik sifatidagi barcha a’zolari yig‘indisi. Insonlar teng bo‘lmagan jamiyatda ular atrof muhitdagilar fikri, tassavurida turlicha o‘rin egallaydi. Atrof-muhit fikri insonlarga har xil ta’sir ko‘rsatadi ba’zi insonlar jamiyat fikriga tobe holda yashasa ba’zi insonlar ular fikridan o‘ziga xulosa chiqaradi. Nima bo‘lgan taqdirda ham odamlar fikriga e’tibor bermay o‘z yo‘lida maqsadlar tomon harakat qilish lozim. Zero odamlar har doim har xil gapiradi. Shuning uchun o‘z fikrida qolish va ozi to‘g‘ri deb bilgan yo‘ldan yurishi lozim.

Sotsial makon deganda Sarokining ko‘ra nafaqat uch o‘lchamli geometrik makonni, balki ko‘p o‘lchamli makonni tushunadi. U yozadi:

- 1)sotsial makon-bu yer aholisi
- 2)sotsial holat- bu aholining barcha guruhlari bilan aloqalar, har bir guruh ichida, ya’ni uning a’zolari bilan aloqalar yig‘indisi.
- 3)insonlar sotsial olamdagи holati bu aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi bilan aniqlanadi;
- 4)bunday guruhlarning yig‘indisi, shuningdek, ularning har biridagi hollar yig‘indisi har qanday individlarning sotsial holatini aniqlashga yordam beradigan sotsial koordinatalar tizimini tashkil etadi.<sup>3</sup> Bundan kelib chiqadiki, bir xil sotsial guruhga mansub bo‘lgan va ushbu guruhlar doirasidəyarli bir xil funksiya bajaradi.

<sup>3</sup> Sotsiologiya tarixi/darslik/.-Toshkent :”Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 466 b

Strafikatsiya nazariyasi- sotsiologiyaning markaziy mavzusi hisoblanadi. Strafikatsiya nazariyasi har doim tenglik-tengsizlikni muhokama qiladi. Tenglik tushunchasi quyidagilarni tasnif etish mumkin.

1. Shaxsiy temglik
2. Imkoniyatlar tengligi.
3. Yashash uchun sharoit tengligi.
4. Natijalar tengligi.

Shu kabi kengsizlik ham tasnif etilishi mumkin.<sup>4</sup>

Sotsial mobillik- sotsial holatda harakatlanish demakdir., jamiyatda doimiy ro'y beradigan, insonlarning o'z mavqeyini o'zgarishi. Sarokin jamiyatda insonlar maqomi ma'lum vaqtida o'zgarishi va ularni jamiyatda faoliyat olib borishi harakati orqali ajralib turishi mumkinligini aytadi. Ya'ni ish faoliyati lavozimi orqali ajratib turishdir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, strafikatsiya – jamiyat tuzilishi, alohida qatlamlar va undagi insonlarning faoliyati haqida nazariya hisoblanadi. Sarokin sotsial mobillik ijobiy hodisa bo'lib, demokratik, dinamik jamiyatga xos degan xulosaga keladi. Bu nazariya bugungi kunda ijtimoiy tuzilish va shaxslarning ijtimoiy tuzilish va shaxslarning ijtimoiy harakatchanligi masalalariga yondashuvida foydalilaniladi va bu kansepsiya turli ijtimoiy fanlar doirasida muhoka qilinmoqda. Sarokin fikrlari, jamiyatning o'zgarishiga ijtimoiy muammolarga va insonlarning ijtimoiy hayotiga oid ko'plab yangiliklar keltirilgan.Umuman olganda Sarokin fikrlari, sotsiologiya sohasining rivojlanishiga va jamiyatning o'zgarishini tahlil qilishga yordam beradi.

## REFERENCES

1. Jiyamurotova Gulnoz Sherbo'tayevna Sotsiologiya tarixi/darslik/.- Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" 2020, 466 b.
2. Abdusamatova Odina Abdusalom qizi. Maqola "Ptirim Sarokinning ijtimoiy strafikatsiya nazariyasi. Mart 2023.
3. Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi. Maqola "Sotsial mobillik tushunchasining sotsiologik mazmuni. Sentabr 2023.
4. ru.m.wikipedia.org.
5. uz.m.wikipedia.org

<sup>4</sup> Abdusamatova Odina Abdusalom qizi. Maqola "P.Sarokinning ijtimoiy strafikatsiya nazariyasi.